

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

OLIY TA'LIM TIZIMIDA BOSHQARUV XIZMATINI TASHKIL ETISH HAMDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING AMALIYOTGA TADBIQ ETISHDAGI DOLZARBLIGI

Boqiyev Ramazon – stajyor tadqiqotchi,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

ramazonboqiyev97@gmail.com

+998883250930

Mamatov Alisher - Jizzax davlat pedagogika universiteti rgiistrator offesi
bosh mutaxassisi

alishermamat93@gmail.com

+998976886655

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada oliy ta’lim muassasalari boshqaruvida qo‘llaniladigan usul, vosita va shakllarini takomillashtirish orqali ta’lim jarayonida uzviylik va uzuksizlikni ta’minlash va amaliyotda qo‘llash hamda bugungi kundagi innovatsion yondashuvlarning ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Oliy ta’lim, xalqaro standart, uzuksiz ta’lim, ta’lim konsepsiysi, strategik rejalar, zamonaviy model, xorijiy tajriba.

Innovatsion iqtisodiyot sharoitida oliy talim muassasalari sonini oshirish, ularning boshqaruva tizimini yanada takomillashtirish, milliy iqtisodiyotimizni rivojlanishida oliy talim muassasalari o‘rnini yuksaltirish bugungi kunda eng muhim ahamiyatga ega bo‘lgan masalardandir. Har qanday buyuk va iqtisodiyoti taraqqiy etgan Jamiatning rivojlangan darajaga yetishlarida ta’lim tizimini, xususan, oliy ta’lim tizimidagi sifatli boshqaruvning o‘rni beqiyosligini inkor etib bo‘lmaydi. Shunday ekan jahonda fan va texnikaning taraqqiyoti sezilarli darajada o‘sib, rivojlanib borishi hamda uning yutuqlarini keng ko‘lamda qo‘llanilishi ta’lim jarayonini uzviyligi va uzuksizligini ta’minlagan holda qayta ko‘rib chiqishni ko‘rsatadi. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari oliy ta’lim muassasalarini boshqarishda qo‘llaydigan usul, vosita va shakllarini takomillashtirish orqali ta’lim jarayonida uzviylik va uzuksizlikni ta’minlash va amaliy faoliyatda qo‘llash hamda tahlil etish shartlarini bugungi kunda amaliyotga tadbiq etib kelmoqda.

Bugun yurtimizda ham oliy ta’lim muassasalarini rivojlantirish boshqaruvning zamonaviy shakl va vositalarini joriy etish, boshqarishning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirish hamda innovatsion baholash mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Mamlakatimizda oliy o‘quv yurti talabalarining bilimi va ko‘nikmalarini shakllantirish, ularni zamonaviy bilimlarga ega yetug pedagog qilib tarbiyalash, o‘qituvchi kasbi nufuzini va pedagoglarning sifat tarkibini oshirish, darsliklar va o‘quv metodik majmualarni zamon talablari asosida takomillashtirish, oliy ta’limi muassasalarining xalqaro standartlarga javob beradigan zamonaviy modellarini barpo etish har bir tadqiqotchining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Shu munosabat bilan Davlatimiz rahbari tomonidan 2019-yilning 8-oktyabrida “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonda bir qator vazifalar belgilab berildi.

Jumladan: - “Oliy ta’lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta’lim bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog‘lom raqobat muhitini yaratish;

- oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish;

- xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta’limning ilg‘or standartlarini joriy etish, jumladan, o‘quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo‘naltirilgan ta’limdan amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim tizimiga bosqichma-bosqich o‘tish;

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON, 2024

- oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish hamda oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, ilmiy izlanuvchilari, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash kabilaridir. [1]

Boshqaruv faoliyati amaliyotni rejalashtirishdan va ularni bajarish uchun shart-sharoit yaratishdan boshlanadi. Shu ma'noda motivlash bilan bog'liq quyidagi tavsiyalar rahbar uchun foydadan xoli emas.

1. Tashkilotning maqsad va imkoniyatlari munosib bo'lishi kerak.
2. Yakuniy natijaga faqat aniq maqsadgina olib keladi.
3. Faoliyat chuqr o'ylangan bo'lishi lozim.
4. Jamoa o'rtasida majburiyatlar va burchlar aniq belgilanishi, mehnat meyorlarinishi va chegaralanishi zarur.
5. Jamoada xar bir kishi o'zini ko'rsata bilishi va imkoniyatlarini yuzaga chiqarishi uchun aqliy muhit, sharoit bunyod etilishi kerak, yaxshi mehnat sharoiti, ishdan qoniqishlik darkor.
6. Intilib va sifatli ishlayotgan xodimga uni rag'batlantirmay turib, boshqalar bajarmagan ishni qo'shimcha qilib topshirmslik kerak. Bu uni tez va sifatli ishlashga bo'lgan ishtiyoqini so'ndiradi, boshqasida esa boqimandachilik kayfiyatini uyg'otadi. [2]

Oliy ta'lim muassasalarida boshqarish vazifasi mohiyatli zaruriy, takrorlanuvchi xarakatlar majmui bo'lib, yagona mazmun va maqsadga qaratilgan bo'ladi. Bunda boshqarish faoliyati birbiriga bog'liq va alohida vazifalarni o'z ichiga oladi. Bunda boshqarish vazifalari rejalashtirish, tartibga solish, tashkil etish, sozlash, muvofiqlashtirish, nazorat, rag'batlantirish, izlash, faollashtirish, hisob-kitob kabi harakatlar orqali amalga oshiriladi. Hozirgi davrda xorijiy mamlakatlarda boshqaruv, innovatsion boshqaruv, informatsion boshqaruv va boshqaruv mechanizmi iboralari tashkiliy hamda iqtisodiy so'zları bilan birga qo'llanilib, ko'p hollarda "innovatsion boshqaruv", "boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mechanizmi" yoki "innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mechanizmlari" shaklida qo'llanilmoqda. Innovatsion boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mechanizmlari tushunchasidan avval innovatsiya va innovatsion boshqaruv tushunchalari bo'yicha ilmiy manbalarga murojaat qilish maqsadga muvofiq. [3]

Xususan, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruvni isloh qilish, tizimda amalga oshirilayotgan ishlarni jadallashtirish maqsadida yurtboshimiz Sh.M. Mirziyoyev tomonidan 2019-yil 11-iyulda "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4391-sonli Qarori tasdiqlandi. Qarorda "...oliy ta'lim muassasalari, kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish markazlarining boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlari mehnatini iqtisodiy rag'batlantirish, ularning mehnatiga haq to'lash miqdorlari oshirilishini ta'minlash, oliy va o'rta maxsus, kasbhunar ta'limi tizimida boshqaruv faoliyatini takomillashtirish, samarali boshqaruv tizimini joriy etish kabi vazifalar asosiy etib belgilandi. [4]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz lozimki oliy ta'limda boshqaruvini tashkil etishning ilmiy-nazariy asoslari, tamoyillar va yetakchi omillari aniqlashtirilsa, bo'lajak menejerlarning kasbiy kompetensiyasining o'ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari va bu boradagi jahon tajribalarida qiyosiy etishimiz mumkin. Bunda bo'lajak menejerlaring kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishda texnologiyalarining pedagogik imkoniyatlarini asoslash va jarayon modeli ishlab chiqish maqsadga muvofiq bo'ladi. Yuqorida qayd etilgan imkoniyatlar asosida ta'lim muassasasi rahbarlarining boshqaruv kompetensiyalarini oshirish hamda usul, metod va

ILM FAN YANGILIKLARI KONFERENSIYASI

30-OKTABR

ANDIJON,2024

vositalarni ishlab chiqish bugungi innovatsion boshqaruvni talab etivchi jamiyatda boshqarish samaradorligini oshishini kuzatish mumkin.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Mamatov Alisher JDPU “Oliy ta’lim muassasalarida fakultet boshqaruvini tashkil etish va rivojlantirish” maqola Jizzax – 2023.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 11-iyuldagagi “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4391-sonli Qarori. <https://lex.uz/docs/4415478>
4. Afanasiev V.G. Dastur-maqsadlarni boshqarish; Jamiyatni ilmiy boshqarish; nashr 2 / ed. OK. Naumenko, G.P. Juravleva, V.V. Grigoryev. - M., 1978. - S. 45-87.